

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK O‘ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATLARIDANDIR

Ismoilova Iroda Ismoil qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

E-mail: irodaismoilova227@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek xalqining eng yuksak qadriyatlaridan bo‘lgan millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, din, xalq, rivojlanish strategiyasi, xalq.

INTERNATIONAL HARMONY AND RELIGIOUS TOLERANCE ARE HIGH VALUES OF THE UZBEK PEOPLE

ABSTRACT

This article talks about interethnic harmony and religious tolerance, which are among the highest values of the Uzbek people.

Key words: Republic of Uzbekistan, interethnic harmony, religious tolerance, religion, people, development strategy, people.

O‘zbekiston jannatmakon o‘lka. Yurtimiz osmoni musaffo, to‘rt fasl mujassam bo‘lgan bunday tinch va osoyishta vatanda yashayotganimiz uchun Yaratganga shukronalar aytamiz. Bugungi murakkab va tahlikali bir zamonda yon-atrofimizdagi xavf-xatarlar, turli to‘qnashuvlar, siyosiy va iqtisodiy qarama-qarshiliklar, terrorizm va boshqa ko‘plab tinchlikka rahna solayotganlar talaygina. Ana shunday tahlikali davrda xalqimiz tinchligi, yurt osoyishtaligini ta’minlash uchun tinim bilmay harakat qilayotgan Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning xizmatlari katta.

2019-yildan buyon hozirgi kungacha davom etayotgan COVID-19 pandemiyasida Yurtboshimiz xalqning tinchligi, eng muhimi sog‘ligini saqlash uchun tinim bilmadi. Prezidentimiz faqat o‘z xalqining g‘amini chekmasdan qo‘shni davlatlar, jumladan, Afg‘oniston, Qirg‘izistonlarga ham do‘stona yordam ko‘rsatdi. Bu esa millatlararo totuvlik va hamjihatlikning yorqin bir ko‘rinishidir. Chunki millatlararo totuvlik o‘zbek xalqining milliy qadriyatlaridandir.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida O‘zbekistonda 120 dan ortiq millat va elat vakillari yashagan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib 130 dan ortiq millat vakillari tinch-totuv, ahl-inoqlikda yashab kelmoqdalar. Muqaddas dinimiz Islomda ham bag‘rikenglikka da‘vat etiladi. Bunda nafaqat millatlararo totuvlik balki xilma-xil diniy etiqodga ega bo‘lgan insonlarning ham bahamjihat, tinch-omon yashashi ham tushiniladi. Bu borada Qur‘oni Karimning Baqara surasining 256-oyatida shunday marhamat qilingan: „Dinda majburlashlik yo‘q...”

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida „O‘zbekiston xalqini millatidan qat‘iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqoralari tashkil etadi” (3-modda), „Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi” (31-modda) deya o‘z ifodasini topgan. Bu muhit bizga yagona oila tuyg‘usini qayta-qayta his etish „O‘zbekiston umumiy uyimiz” degan so‘zlar zamiridagi chuqur ma‘noni anglab olish imkonini beradi.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, rivojlanish strategiyasining ham ajralmas qismi hisoblanadi. Yurtimizda 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini zamonaviy davlat sifatida rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishi ya‘ni harakatlar strategiyasiga ko‘ra, so‘ngi yillar ichida millatlararo munosabatlar va din sohasida 50 dan ortiq qonun hujjatlar va 40 ga yaqin qarorlar qabul qilindi. Ulardan biri sifatida Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 4-mayda qabul qilingan „Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi qonunini keltirish mumkin.

Unga ko‘ra vijdon erkinligini ta‘minlash, diniy tashkilotlar faoliyati va ularni huquq hamda majburiyatlari va boshqalarga to‘xtalib, qonun doirasida belgilab berilgan. Bu qonun qoidalarning amaliy ifodasiga kelsak, bugungi kunda

O‘zbekiston Respublikasida 16 diniy Konfessiyaga mansub 2239 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2065 tasi islomiy, 157 tasi xristian, 8 tasi yahudiy,

6 tasi bahoiy jamoalari, bittadan Krishnani anglash jamiyati va Budda ibodatxonasi. Bu tashkilotlar ham boshqa tashkilotlar singari shu ona yurt taraqqiyoti, xalq farovonligi, yurt tinchligini ta‘minlash, xalqimizning ma‘naviyatini yuksalishida o‘zining munosib hissalarini qo‘shib kelishmoqda.

O‘zbek xalqi azaldan mehmondo‘st, mehru-muruvvatli, iymon-e‘tiqodlidir. Farzandlar yoshligidanoq ota-onaga, kattalarga hurmat, kichiklarni izzat qilish kabi tushunchalar o‘rgatiladi. Bular bilan bir qatorda o‘zga millat va din vakillarini hurmat qilish, ular bilan do‘stona munosabatda bo‘lish oilada, bog‘cha va maktablarda ta‘limni tarbiyadan ajratmagan holda o‘rgatiladi. Xususan, mamlakatimizdagi davlat ta‘lim muassasalarida o‘qitish yetti tilda olib boriladi.

Bugun O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlab murosa qilayotgani faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyo uchun namuna bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqimizning dunyo

qarashida tobora chuqur va mustahkam o‘rin egallayotgan bag‘rikenglik tamoyili to‘g‘risida shunday deydi: „Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan.

Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi.” Bizning yurtimiz qanchalik millatlararo bahamjihat va diniy bag‘rikenglikda yashasa ham ko‘ra olmayotganlar bor. Bulardan biri bu tinchlikka rahna soluvchi tajavvuskor millatchilar va shovinistlardir. Bunday noto‘g‘ri o‘y-fikrlarga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday fikr bildirgan: „Afsuski, insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi odamlardagi

e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki vayronkor kuch sifatida, hatto fanatizm (o'ta ketgan muttasiblik) sifatida foydalanilganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p. Fanatizmning o'ziga xos xususiyati va ko'rinishlari avvalambor o'z dinining haqiqiylikiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lishdan iboratdir". Hozirgi kunda Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning sayi harakatlari, kuchli siyosiy va diniy bilimga egaligi tufayli, tashqi va ichki millatlararo totuvlikni ta'minlashdagi o'rni beqiyosdir.

Zero, biz O'zbeklar uchun millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik yuksak qadriyatdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qur'oni Karim.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi 3,31-modda.
3. „Bunyodkorlik yillari-tarixiy yutuqlari” Q.Usmonov, A.Vahobob, S.Burhonov.
4. Internet materiallari.